

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING INTEGRATIVLIGI VA O'QUVCHILARDA ESTETIK DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

**Ravshanova Madina Qurbonnazar qizi**

*Toshkent viloyati Zangiota tumani 31-maktabning  
tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushb maqolada tasviriy san'at fanining o'quv predmeti sifatida yosh avlodning hayotidagi ahamiyati, darslarning samarali tashkil etilishi bo'yicha namunalar keltirilib, o'qituvchi shaxsiga nisbatan hurmat va e'tiborga munosib pedagog bo'lish va dars sifatini eng yuqori darajaga ko'tarish masalasi yoritilgan. Darslarda foydalaniladigan didaktik va interfaol o'yinlardan tavsiviy namunalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *noan'anaviy darslar, integrativ darslar, didaktik jarayon, "Davom ettir!" o'yini, "Intervyu" metodi, "Xotira" o'yini.*

Istiqlol yillarida mamlakatimiz madaniy hayotida biyennale, fotobiyennale singari yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Har ikki yilda o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi mustaqillik davri o'zbek tasviriy san'ati erishayotgan yutuqlarni jahon san'atshunoslari, musavvirlari va muxlislarga havola etish, ularni yurtimizda kechayotgan ijodiy jarayon bilan tanishtirish, ijodkorlarning o'zaro fikr va tajriba almashishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda tasviriy va amaliy san'at haftaligi xalqaro festival darajasiga ko'tarildi. Bu yil ushbu tadbirda Slovakiya, Yaponiya, Hindiston, Ozarbayjon, Iroq, Vetnam kabi o'ndan ortiq davlatlardan musavvirlar ishtirok etdi. Ushbu festival yosh mo'yqalam sohiblari orzularini ro'yobga chiqarishga ham hissa qo'shayotir. Unda muvaffaqiyatli qatnashgan yoshlar xorijiy davlatlarda tashkil etilayotgan turli xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, biyennalelarda ishtirok etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan maktablarda tasviriy san'at va chizmachilik fanlariga alohida e'tibor va shart-sharoitlar yaratilayotganligi, yoshlarning estetik dunyoqarashini o'stirishda bu fanning ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biz olis hududlarda ham tasviriy san'at darslarini zamonaviy ruhda va yangicha yondashuvlarga yo'g'rilgan holda olib borishimiz kerak. Binobarin, tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.<sup>1</sup>

Tasviriy san'at ta'limiga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli,

tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida noan'anaviy darslar, integrativ darslar, ekskursiya darslari, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishimiz va o'quvchilarga bilimlarni eng yuqori saviyada singdirishimiz zaruratini belgilaydi. Tasviriy san'at barcha o'quv fanlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa bu bog'liqlik ko'proq biologiya, geografiya, mehnat, chizmachilik, matematika, fizika, tarix, til adabiyot fanlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Bu bog'lanish ham nazariy, ham amaliy jihatdan amalga oshiriladi. Predmetlararo bog'lanishning tashabbuskori tasviriy san'at o'qituvchisidir.

Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon yangi dars materialiga kirish, ya'ni o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash — motivatsiya jarayoni bilan boshlanadi. Bu o'quvchilarning yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkonini beradi. 1—7-sinflarning tasviriy san'at darslarida pedagogikaning barcha turdagi dars o'tish metodlaridan foydalaniladi. 5—7-sinflarda rasm chiziladigan natura va natyurmortlarda rasmini chizish yoki tematik kompozitsiyalar yaratishning ish mazmuni ancha murakkablashib boradi. Bular o'qituvchidan dars jarayonida qo'llanilayotgan uslublarini o'zgartirib, goh bir, goh ikkinchi — boshqa uslublardan foydalanishni taqozo etadi. Ammo har bir darsda og'zaki bayon etish va savol-javob metodidan keng foydalanadi. Bunday holatga o'qitishning «aralash» usuli ham deyiladi. Bundan tashqari, biz ish faoliyatimizda foydalanadigan quyidagi didaktik o'yinlar ham o'quvchilarning, ham fanning asosiy maqsadiga erishishiga xizmat qiladi.

“Davom ettir!” o'yini

Bu o'yinda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh uchun alohida format, barcha uchun yagona rasm namunasi beriladi. Birinchi o'quvchi rasmning bir elementini, ikkinchi o'quvchi esa ikkinchi elementini chizadi. Shu tariqa o'quvchilar bir-birlarining ishlarini davom ettiradilar. O'zaro yutuqlarini o'rganadilar, kamchiliklarini tuzatadilar. Bu jarayonda jamoa bo'lib ishlash kompetensiyasi yaxshilanadi.

“Intervyu” metodi

Bu metoddan asosan uy vazifalarida foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilarga erkin mavzuda rasm chizish vazifasi beriladi. Kelasi darsda o'quvchilar chizgan rasmlarning mavzusi, nima uchun bu mavzuni tanlaganligi, nimalarni tasvirlagani, qanday usuldan foydalanganligi haqida gapirib beradi, ya'ni intervyu

beradi. “Intervyu” yordamida o‘quvchilarning nutqi, dunyoqarashi, fikrlashi, qiziqishi to‘g‘risida yanada ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

“Xotira” o‘yini

Bu o‘yinni ekranda tasvirlar yoki rep-roduksiyalar ko‘rsatish bilan o‘tkazish mumkin. O‘quvchilarga turli natyurmortlar rasmi ko‘rsatiladi. Natyurmortni eslab qolib, xayolan chizishlari aytiladi. Bu usul orqali ularning xotira asosida rasm chizish qobiliyati aniqlanadi. Natura qo‘yib ham o‘quvchilarga ko‘rsatilgandan so‘ng ustini drapirovka bilan yopib qo‘yib, keyin xotira asosida chizishni taklif etish mumkin. Bu bilan o‘quvchilarning fantaziyasi, eslash qobiliyati kuchaytiriladi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T.; 2019

2. X. O. Xonboboyev. “Tasviriy san‘atni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish” Молодой ученый. — 2016. — № 3.1 (107.1)

3. B.N. Oripov “Tasviriy san‘atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi”; T. - «ILM ZIYO» - 2013

4. R.Hasanov. “Maktabda tasviriy san‘at oqitish metodikasi” Toshkent.- “Fan”.2004.

5. Tasviriy san‘at darsliklari. 4,5.6.7 - sinflar